



Tadqiqot.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No 23  
25 декабрь

[conferences.uz](http://conferences.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
25-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 25**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 25**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Hidoyeva Shahlo Umar qizi</b> IQTISODNI O'SISHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	7
<b>2. Раҳмонова Санобар Ҷаббаровна</b> ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ, “ГЕОГРАФИЯ” ФАНИНИ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	9
<b>3. Hamroyeva Dilrabo Jalilovna</b> TABIIY GEOGRAFIYANING OBYEKTI VA PREDMETI .....	11
<b>4. Mustafoyeva Humayra Yo'ldosh qizi</b> YANGI INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANIB MAKTABDA GEOGRAFIYA FANINI TASHKIL QILISH.....	13
<b>5. Qurbonova Rohat Jo'rayevna</b> GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	15
<b>6. Zaripova Mohigul Olimjonovna</b> O'ZBEKİSTON ERKIN IQTISODIY ZONALARINING GEOGRAFIK XUSUSİYATLARI .....	17



## ГЕОГРАФИЯ

### IQTISODNI O'SISHDA INNOVATSIYALARING O'RNI VA AHAMIYATI

*Hidoyeva Shahlo Umar qizi  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
5-maktab iqtisod-geografiya fani o'qituvchisi  
Telefon: 906198035.shahlo.hidoyeva@mail.ru.*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda innovatsiya va yangi texnologiyalarni iqtisodiy o'sishda ta'siri haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, innovatsiyalarning afzalliklari hamda iqgisisodiyotda innovatsiyani rag'batlantirish chora-tadbirlari yoritilgan.

**Аннотация:** Этот тезис рассматривает влияние инновационных технологий на экономический рост. Он также описывает инновации и меры по стимулированию инноваций в экономике.

**Annotation.** This thesis focuses on the impact of innovation and new technologies on economic growth. The benefits of innovation and measures to stimulate innovation in the economy are also revealed.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, iqtisodiyot, iqtisodiy usish, yangi texnologiyalar, samaradorlik

**Ключевые слова:** инновация, экономика, экономический, рост, новые технологии, эффективность

**Keywords:** innovation, economy, economic growth, new technologies, efficiency

Har bir sohada o'z mavqeyi va urni bilan tobora ommalashib borayotgan innovatsiya iqtisodiy rivojlanishga ham ta'sirini o'tkazmay qo'yumayapti. Bu borada Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'grisida"gi Farmonida "Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmokda" ekanligi belgilab berilgan. Shunday ekan, innovatsiya iste'molchilarga, korxonalariga va umuman iqtisodiyotga foyda keltiradigan iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi.

Innovatsiyani o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, bir tomondan, biror yangi yondashuvni taqdim qilish deb hisoblansa, boshqa tomondan, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni yoki jarayonlarni amalga oshirish usullarini sinab kurishga intilish demakdir. Iqtisodiy nuqtai nazardan, innovatsiyalar tovarlar va xizmatlarni yaxshilaydigan yoki ularni ishlab chiqarishni samaraliroq qiladigan g'oyalalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashni tavsiflaydi.

Quyida innovatsiyaning afzalliklari to'g'risida aytib o'tish joiz.

Birinchidan, yangi texnika va texnologiyalar aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, onlayn-internet savdo innovatsiyaning bir ko'rinishidir. Bu orqali iste'molchi uzoq masofadan turib ham o'z talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu bir tomondan, ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlarni kamaytirib, maksimal foyda olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, haridorlar uchun qulaylik yaratadi. Bu o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, innovatsiya yuqori samaradorlikka yetaklaydi. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonidan yangi texnologiyalar joy olsa, bu shu korxonaning samaradorligiga katta ijobjiy ta'sir kursatadi, ya'ni ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga boshlanadi, kengroq xizmatlar ko'rsatish yo'lga quyiladi. Boshqacha aytganda, samaradorlik biznez egalarig a ham, ularning tovar va xizmatlaridan foydalanuvchilarga ham foyda keltiradi. Misol uchun, samaradorlik oshsa, korxona ishchhnlarining ish haqi ham ko'tariladi. ularning maoshi ko'p bulsa, yanada kuproq tovar va xizmatlardan foydalanishadi. Ayni vaqtda ishlab chiqarish hajmi ortadi va tadbirkorlarni



kuproq investitsiya kiritishiga olib keladi. Bularning barchasi yalpi ichki mahsulotning oshishiga hamda itstisodiy o'sishga turtki buladi.

Yuqorida innovatsiyaning nima uchun zarurligi haqida aytgan bulsak, endilikda uni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarga tuxtalamiz:

- ta'limga sarmoya kiritish. Bu orqali ilmiy izlanuvchanlar o'zlarining innovatsion g'oyalari ni amaliyatga tadbiq qila olishadi. Ularning innovatsnyalari butun dunyoni saqlab qolmasa-da, o'zlarining ustida ishlashlari uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

- Kompaniyala o'z xodimlariga sarmoya kiritib, ilmiy- tadqiqot ishlarini olib borish orqali innovatsiyalar kirib kelishini osonlashtirishi mumkin.

Shunday qilib, innovatsiyalarni hayotga tadbiq qilishdan asosiy maqsad insonlarni yashash sharoitini yaxshilashdan va bu orqali iktisodiy o'sishga erishishdir. Kichik o'zgarishlar katta goyalar va hatto dunyo miqyosidagi yangilik paydo bo'lishiga yetaklashi mumkin. Har bir shaxs o'zi faoliyat yuritayotgan sohada biror yangilik kilishni boshlamas ekan, bu soha innovatsiyalar yaratilayotgan sohalardan orqada kolaveradi. Innovatsiya bo'lmasa - yangilik bo'lmaydi, yangilik bo'lmasa esa o'sish, oldinga siljish kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Abeltina(2017) "The role of innovation in economic development"
2. N.Rosenberg(2014) "Innovation and economic growth"
3. [www.biznes-daily.uz](http://www.biznes-daily.uz)
4. [www.ecb.europa.eu](http://www.ecb.europa.eu)
5. [www.viima.com](http://www.viima.com)



ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН  
ФОЙДАЛАНИБ, "ГЕОГРАФИЯ" ФАНИНИ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.

*Рахмонова Санобар Джаббаровна.  
Бухоро вилояти Шоғиркон тумани  
4-мактаб ўқитувчиси +998943246040*

**Аннотация:** ушбу мақолада география фанини ўқитиш усуллари ҳақида баён этилган.  
**Калит сўзлар:** Таълим-тарбия, замонавий таълим, Мультимедиа воситалари.

Таълим-тарбия соҳасини ислоҳ қилишнинг асосий омилларидан бири бу таълим жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш билан боғлиқ. Бугун ҳаётимизга чукур кириб бораётган интернет тизимини кенг жорий этиш, ёшлиаримизни юртимизнинг қадимий ва бой тарихи, эзгу қадриятларимиз, юксак ахлоқий фазилатлар руҳида тарбиялашга хизмат қиладиган миллий ахборот ресурсларини шакллантириш ва ривожлантириш масаласи доимо эътиборимиз марказида туриши лозим.

Бугунги кун таълимининг асосий максадларидан бири замонавий таълим тизимида юқори сифатли технологияларни жорий этиб, электрон ресурслардан фойдаланган холда, таълим самарадорлигини ошириш ва таълим тизимини такомиллаштириш, таълим жараёнига ахборот ва коммуникация технологияларини кенг кўламда жорий этишдан иборат.

География фани умумий ўрта таълим тизими учун асосий ўқув предметларидан бўлиб ҳисобланади. Бу фаннинг таълим методлари ва технологиялари ёрдамида мавжуд маълумотларни ўқувчиларга, таълим технологиялари ва методларидан фойдаланган холда, визуал тарзда етказиш хар бир педагогдан жуда катта маъсулиятни талаб қиласди. Таълим беришда мультимедиа тизимлари ва масофавий ўқитиш методларидан фойдаланиш, география фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларга мавзуни мукаммал холатда, визуал тарзда етказиб бериш имконини яратади. Бугунги кундаги электрон таълим ресурсларини яратиш имконини берувчи педагогик дастурий таъминотларга Ispring, Corselab, Crocodile Physics, Crocodile, Chemistry, Crocodile Technologі ва бошқалар киради. Бу электрон таълим ресурслари ёрдамида география фанидан материалларни электрон шаклда тайёрлаш ва амалий машгулотларни Crocodile Chemistry дастурлари ёрдамида географик муҳитда содир бўлаётган турли жараёнларнинг ва омилларнинг таъсирини кўриш имконини беради. Таълимни бундай шаклда ташкил этилиши ўқувчилар томонидан мавзуни кўргазмали тарзда ўзлаштиришларига ёрдам беради.

Мультимедиа воситалари - бу аппарат ва дастурлар тўплами бўлиб, у инсонга ўзи учун табиий бўлган жуда турли-туман муҳитларни: товуш, видео, графика, матнлар, анимацияларни ишлатган ҳолда компьютер билан мулоқот қилиш имконини беради. Таълим жараёнида мультимедиа технологияларининг қўлланилиши ўтилаётган мавзууни тўлиқ холатда кўргазмали тарзда етказиб бериш имкониятини яратади. География фанидан электрон дарслик яратиш учун Corselab дастурининг имкониятлари жуда кенг. Бу дастур ёрдамида мавзуларни видеолавҳалар шаклида кўрсатиш, харакатли элементлардан фойдаланган ҳолда ўтиш имконини беради. Фанни ўқитиш жараёнида назорат ишларини шакллантириш ва уларни электрон шаклда ўқувчилардан олиш учун Ispring дастуридан фойдаланиб, тестлар яратиш мумкин. Фанни ўқитиш жараёнида масофавий таълим технологияларидан хам фойдаланиб, электрон ўқув курсларини яратиш имконияти мавжуд. Бугунги кунда виртуал таълим жараёнини бошқариш тизимларидан Atutor, Moodle, Blackboard, ва бошқа тизимлар масофадан таълим бериш воситалари сифатида қўлланилиб келинмоқда. Бу тизимлар ёрдамида ташкил килинган электрон ўқув курслар фанни ўзлаштиришга, мустақил равишда таълим олишга ва ўз устида ишлашга имкон яратади.

Мультимедиа соҳасида 3D технологияларнинг кириб келиши бу соҳада янги даврни бошлаб берди. "D" атамаси инглизча "dimensions" сўзидан олинган бўлиб, "ўлчамлар" маъносини беради. Таъкидлаш жоизки, 3D технологияси тасвирини визуал ва товушли узатиб беришнинг дунёдаги энг илғор усулидир. Бу тизим асосан кимё, биология, география, медицина билан боғлиқ бўлган таълим жараёнларида яхши самара беради.



Бугунги кунда ўқувчиларга билим бериш жараёнида масофадан туриб ўқитиш жуда зарур воситалардан бири бўлиб, жаҳон миқиёсида бу соҳада катта ютуқларга эришилмоқда. Бунга мисол тариқасида **Moodle** системасида масофадан таълим беришни мисол қилиб олиш мумкин. **Moodle** системаси бепул кенгайтирилган дастурий комплекс бўлиб, ўзининг функционал имкониятларига асосан кенг миқиёсида масофавий таълим олувчиликларга қулайликлар яратиб беради. География фанидан Moodle тизимида электрон ўкув курсини яратиш, шу фаннинг мустакил таълим топшириқларини электрон курсларга жойлаштириш ва ўқувчилардан электрон тарзда кабул килиб, тизим ёрдамида баҳолаш ўқувчиларни топшириқларни мустакил равишда бажаришга ва жавоб вариантларини мобил телефонлар, смартфонлар орқали ва интернет тармоғи орқали юбориш имконини беради. Ўқувчилар бу топширикларни ихтиёрий бўш вақтида бажариб юборишлари мумкин.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки география фанидан педагогик таълим жараёнида электрон дарсликлардан, ўкув қўлланмаларидан, электрон қўргазмали материаллар, компьютер графикаси(3D) имкониятларидан фойдаланиш таълим самарадорлигининг ошишига, ўқувчилар ўзлаштириш имкониятларининг тараққий этишига ва малакали рақобатбардош кадрларнинг етишиб чикишига замин яратиб беради.



## TABIY GEOGRAFIYANING OBYEKTI VA PREDMETI.

*Hamroyeva Dilrabo Jalilovna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi  
10-umumiy o'rta ta'lif maktab  
geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Har qanday mustaqil fan o'z tadqiqot obyekti ega bo'lgani kabi tabiiy geografiya ham o'z tadqiqot obyekti egadir. Uning obyekti juda murakkab tuzilgan ko'p tavsifli tabiat hosilasidir.

**Kalit so'zlar.** tadqiqot obyekti, metod, tabiiy geografiya, metodologiya, P.I.Brounov, yer, organik hayot, A.A.Grigorev, Geosfera, atmosfera, gaz, component, geografik muhit, geografik qobiq, landshaft qobig'i, biogenosfera, landshaft sferasi, epigeosfera.

Har bir fanning nazariyasi, metodologiyasi rivojlanib, izlanish metodlari takomillashib borgani sari uning tadqiqot obyekti, predmeti va vazifalari haqidagi tushunchalar ham aniqlashib, muayyanlashib borishi tabiiyidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tabiiy geografiya fanining hozirgi rivojlanish bosqichida uning tadqiqot obyekti haqida to'rtta tushuncha hosil bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Tabiiy geografiyaning obyekti haqidagi birinchi va eng keng tarqalgan tushuncha geografik qobiq haqidagi tushunchadir. Bu tushunchaga asos bo'lgan dastlabki fikr P.I.Brounov (1852-1927) tomonidan uning tabiiy geografiyadan tuzgan o'quv qo'llanmasida (1910) bildirilgan edi. Unda yozilishicha, tabiiy geografiya yerning qiyofasini, ya'ni yerning turli hodisalar va organik hayotga makon bo'lgan tashqi qobiq g'ini o'rganadi. Bu qobiq bir-biriga tutash bo'lgan, o'zaro ta'sir va aloqadorlikda bo'lgan sferalar, ya'ni litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferadan tashkil topgandir. P.I.Brounov bu sferalarning barchasi bir-biriga kirishib, o'zaro ta'sirlari bilan ham yerning tashqi qobig'ini, ham yerdagi barcha hodisalarni keltirib chiqaradi, shu o'zaro ta'sirlarni o'rganish tabiiy geografiyaning eng asosiy vazifalaridan birini tashkil qiladi, deb yozgan edi. Muallif fanda birinchi bo'lib, tabiiy geografiyaning obyektini o'z mazmuniga mos nom bilan, ya'ni yerning tashqi qobig'i, deb atagan edi. Uning fikrlari keyinchalik A.A.Grigorev tomonidan rivojlantirildi va natijada geografik qobiq haqidagi ta'lifot yuzaga keldi. Bu ta'lifotning asosiy mazmuni yerning ustki qismi sifat jihatidan boshqa sferalardan farq qiladigan, o'ziga xosxususiyatlarga ega bo'lgan qobiqdan tuzilganligi va o'zaro bog'liq bo'lgan, birbiriga faol ta'sir etib turadigan turli geosferalardan tashkil topganligi hamda o'zida organik hayot va murakkab tabiiy geografik jarayonning mavjudligi bilan ifodalanadi. Geosferalarning har biri moddaning u yoki bu agregat holatini aks ettirib, geografik qobiqning u yoki bu komponentini tashkil qiladi. Masalan, atmosfera moddaning gaz holatidagi ko'rinishi bo'lib, geografik qobiqning havo komponentini, gidrosfera esa moddaning suyuq holatidagi suv komponentini tashkil qiladi va h.k. Geografik qobiqni tashkil qiluvchi va uni rivojlantiruvchi komponentlarning o'zaro ta'sir va aloqadorliklari ular orasida muttasil ro'y berib turadigan modda va energiya almashinishing natijasi bo'lib, bu almashinishing moddaning aylanishi va energiya oqimi shaklida bo'ladi. Geografik qobiqdagi modda va energiyaning harakati uning tarkibiy qismlarini bog'lab turadi va bir butunligini ta'minlaydi. Geografik qobiqning mavjudligi va u o'ziga xos xususiyatlari bilan tabiiy geografiyaning obyekti ekanligi ko'pchilik geograflar tomonidan tan olingan. Ammo uning nomlanishi, uning yuqori va quyi chegaralari hamda ularga bog'liq holda qalinligi haqida turlicha fikrlar yuzaga kelgan. Geografik qobiq haqidagi ta'lifotning asoschisi hisoblangan A.A.Grigorevning o'zi ham uni turlicha nom bilan atagan. Masalan, 1930-yilda "geografik muhit", 1937-yilda "tabiiy geografik qobiq" va 1964-yilda esa "geografik qobiq", deb atagan. Geografik qobiq haqidagi ta'lifotning ommalashtirilishida, oliv geografik ta'limga joriy qilinishida, o'rta maktab dasturlariga kiritilishida xizmatlari beqiyos bo'lgan S.V.Kalesnik 1940-yilda birinchi bo'lib "geografik qobiq" atamasini ishlatgan bo'lsa ham, keyinchalik 1955-1970 yillarda u sinonim sifatida "landshaft qobig'i" atamasidan foydalana boshladi. Yerning tashqi qobig'ini geografik adabiyotda "landshaft qobig'i" (Y.K.Yefremov, 1950; V.B.Sochava, 1956), "landshaft sferasi" (Y.K.Yefremov, 1959; D.L.Armand, 1975), "biogenosfera" (I.M.Zabelin, 1959, 1978), "epigeosfera" (A.G.Isachenko, 1965, 1991) yoki "geosfera" (A.M.Ryabchikov, 1978) deb nomlash hollari uchraydi. Bir vaqtlar V.I.Vernadskiy (1926) aytgan "biosfera" ham o'z chegaralari bilan geografik qobiqqa mos keladi. Tabiiy



geografiyaning tadqiqot obyekti aynan ana shu tabiiy geografik komplekslar bo‘lishi kerakligini B.P.Orlov (1945), A.G.Isachenko (1953), N.A.Solntsev (1955), V.P.Lidov, L.E.Setunskaya (1956), K.K.Markov (1970) va boshqalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganlar. Ammo geografiya fani tarixida bunday fikrni birinchi bo‘lib A.N.Krasnov (1895) bildirgan edi. Uning fikricha, geografiyaning eng asosiy vazifasi geografik komplekslarni aniqlash, ularning xususiyatlari va tarqalish sabablarini o‘rganishdan iborat bo‘lishi kerak. A.G.Isachenkoning (1991) fikricha, hozirgi zamон tabiiy geografiyasidagi asosiy g‘oya planetamizning tashqi sferalarini hosil qiluvchi tabiiy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi g‘oyasidir. Bu g‘oyaning ildizlari A.Gumbolt va V.V.Dokuchaev asarlariga borib taqalsa ham, tarixan ikki yo‘nalishda aniqlashtirilib va rivojlantirilib borildi. Natijada bir tomonidan geografik qobiq haqida, ikkinchi tomonidan esa tabiiy geografik komplekslar haqidagi tushunchalar shakllandı. Bunda geografik qobiqning o‘zi ham eng yirik tabiiy geografik kompleksdir, deb e’tirof etildi. Bu haqda taniqli tabiiy geograf V.S.Preobrajenskiy (1972): “Tabiiy geografik kompleks va geografik qobiq tushunchalari orasidagi mantiqiy aloqaga alohida e’tibor berish lozim. Bu tushunchalarning o‘zagi bir. Tabiiy geografiya ushbu tushunchalar aks ettirgan ikkala obyektni ham o‘z o‘rganish predmeti qilib oladi”, – deb yozadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Nazarov I.K. Geografiya fanining asosiy ma’lumotlar. (o’quv qo’llanma) Toshkent: 2013.
2. Берг Л. С. Географические зоны. -Т.1, М., 1947.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## YANGI INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANIB MAKTABDA GEOGRAFIYA FANINI TASHKIL QILISH

*Mustafoyeva Humayra Yo'ldosh qizi  
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman7-maktab  
Geografiya fani o'qituvchi Tel:+998907306773*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada geografiya darslarini samarali tashkil etishda foydalilanidigan o'yinlar va metodlar haqida bayon etilgan, kartadan top o'yini, Blits texnologiyasi o'yinlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif tizimi xarita o'qituvchi,geografiya,darslari,tabiat,geografik burchak.

Zamonaviy geografiyani o'qitishda innovatsion texnolgiyalardan samarali foydalana olishning birinchi navbatda o'qituvchining faoliyatiga, nazariy bilim darajasiga tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik mahoratiga bog'lik.

Bugungi kun ta'lif tizimining talablaridan kelib chiqqan holda innovatsion texnolgiyalardan geografiya darslarida mavzuga mos turda saralab olish va olib borishdan ko'zda tutiladigan maqsadlar quyidagicha taqsimlanadi:

o'quvchilarning geografiya faniga va u orqali o'zi yashayotgan o'lka tabiatiga mexr-mux-abbatni shakllantirish, ularning nazariy bilimlarni chuqur o'rganishida, o'zicha fikrlay olishi hamda o'rganilgan bilimlarni amalda bajara olishida muhim o'rinni egallash; o'rganilayotgan mavzuni yengil o'zlashtira olishga yordam berish va boshqada shunga o'xshagan ahamiyatli vazifalarini o'z ichiga oladi.

Geografiya darslarini qiziqarli va ko'rgazmali o'tkazishda karta va geografik-atlasdan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarni kartadan foydalanish va uni o'qiy olishga o'rgatish ularda geografik bilimlarni qiziqish ko'nikmasini tug'diradi, lekin kartani o'qish ko'nikmasini tug'diradi, lekin kartani o'qish ishlash usullaridan yaxshi foydalanilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Geografiyadan kartalarni o'qishni bilgan o'quvchi geografiyani nazariy bilimlarni tez o'rgana oladi. O'quvchilar kartadan geografik obyektni topa olmaslik xodisalari ham uchraydi. Xo'sh bu xolda nima qilish kerak qanday qilsa o'quvchi kartadan kerakli obyektlarni topadigan bo'ladi. Bunda geografik o'yinlar yordam beradi.

Tovush chiqarmasdan topish o'yini. O'yinni boshlashdan avval o'quvchilarga o'yin qoidalari tushuntiriladi. O'yinga faol qatnashgan va shartlarni oldin bajargan o'quvchiga baho qo'yiladi.

O'yin mazmuni O'qituvchi geologik biron obyekt nomini aytadi. O'quv vositasi o'quvchilar shu obyektni geografik karta va atlasdan qidiradi, o'yining borishi: Obyektni topgach o'quvchi o'ng qo'lini ko'taradi, o'qituvchiga o'zi topgan obyektni ko'rsatadi, o'quvchi qo'li bilan obyektni ushlab turmasligi kerak. Chunki yonidagi bola undan ko'rib olishi va foydalanishi mumkin. Shuning uchun obyektni topgan o'quvchi joyning nomini yodda saqlashi zarur. O'qituvchi oldin topgan va qo'lini ko'targan o'quvchining oldiga borishi va tekshirib ko'rishi kerak. "Men topdim", "men topdim"deb tovush chiqargan o'quvchilarning topgani hisobga olinmadni, bu haqda bolalar ogohlantirib qo'yiladi. O'yinda obyektni birinchi bo'lib topgan o'quvchi uni geografik karta yoki atlasdan ko'rsatishi kerak

Boshqa o'quvchilar qanchalik bilib olganliklarini sinash uchun ulardan ham obyekt so'raladi. Obyektni topgan o'quvchi o'tirgandan so'ng, o'qituvchi yangi obyekt nomini aytadi.

Kartadan topish o'yini. Har bir sinfda olib boorish mumkin. Darsning mazmuniga qarab o'yin geografik atlasing turli sahifalaridagi obyektlarda bo'ladi. O'quvchilarga bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridanso'ng tez topadigan nomning geografik koordinatlarini aniqlash topshiriladi.

Buning uchun shahar va qo'rixonalarni tanlagan ma'qul o'quvchilar topilgan joylarning koordinatalarini daftarga yozib oladilar.

«Blits» texnologiyasi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni harakatla ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan malumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharot yaratadi.

Maqsad: Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga



o'tkaza olish yoki fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo'la olishga yordam beradi.

O'tkazilish texnologiyasi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi. 1–bosqichda: o'qituvchi ushbu dars bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida o'quvchilarga tushuncha beradi.

Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi o'quvchilar esa shu vaqtidan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- o'qituvchi hamma o'quvchilarga alohida–alohida. Tarqatma material beradi va o'quvchilardan ushbu materialni sinchiklab o'rganib chiqishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi yaxni tarqatma materialda berilgan maxlum bir sondagi(misol uchun 13ta)harakatning ketma-ketligini to'g'ri belgilash kerakligi belgini esa qog'ozdagi alohida ajratilgan bo'limiga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi; qo'yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2–bosqichda:

- o'qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir o'quvchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;

- har bir o'quvchi tarqatma materialdagi "Yakka baho" bo'limiga shu yerda berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, yaxshi berilgan harakatdan uning fikricha qaysi biri, birinchi bo'lisi, qaysi biri esa ikkinchi bo'lislini va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi tinglovchilarga malum daqiqa vaqt beradi.

3–bosqichda:

O'qituvchi o'quvchilardan biror kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so'raydi kishilik guruhlar o'quvchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin; kichik guruhlarda o'quvchilarning har biri o'z qog'ozidagi "Yakka baho" bo'limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar keyin kishida uch xil bo'lgan ketma ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirib kelishgan holda bir muqim qarorga kelib, ularga tarqatilgan qog'ozdagi "Guruh bahosi bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. O'qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir o'quvchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib beradi. Men ham o'z geografiya darslarimda ko'pgina o'yin turlaridan foydalanaman.

Foydalilanigan.adabiyotlar.

1. Yuldashev.J.G.,Usmonov S.Zamonaviy texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish-T“Fan va texnologiya”2008.

2. Qodir To'rayev, Sattor Burxonov, Muhayyo Zokirova”Qiziqarli bilimlar olamida” Toshkent-2014y.

3. Geografiya fanini o'qitishda yangi innovatsiyalarni joriy qilish. Usmonov S



## GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Qurbanova Rohat Jo'rarevna*

*Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 13-umumiy  
o'rta ta'lif maktabi geografiya fani o'qituvchisi  
Telefon:+998(93)6393276*

**Annotatsiya:** Maqlada umumiyo'rta ta'lif maktablarida geografiya darslarida o'quvchilarda AKT texnologiyalaridan foydalanish orqali savodxonlikni oshirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompyute, ko'rgazmali vosita, axborot, animatsiya, slaydlar.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lif tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda barcha sohalar kabi ta'lif jarayonida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Geografiya fanini o'qitish jarayonida kompyuterdan ko'rgazmali vosita, o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishiga mo'ljallangan didaktik o'quv materiali, o'z-o'zini nazorat va ixtirochilik qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan ijodiy texnologik ob'ekt sifatida foydalanishga e'tibor qaratish zarur. Chunki o'quv materiallarining tabiiy, jonli va eng muhimi, qiziqarli namoyish etilishi, o'quvchilar tomonidan qayta ishlanishi, muammoning ijodiy hal etilishi ularning bilim olishini yengillashtiradi, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq muddat xotirada saqlab qolish, ijodiy ixtirochilik ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, bilimlarni amaliyotda qo'llashlariga sharoit yaratadi.

Dars o'tish jarayonida slaydlarda axborotlarni istalgan shaklda va ko'rinishdagi matn, grafika, jadval va diagrammalar shaklida tashkil etish va namoyish qilish mumkin. Bugungi kunda namoyish slaydlarini yaratishda ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish o'zining har tomonlama ijobiy samarasini bermoqda. Ana shulardan biri multimedia texnologiyasıdir. Multimedia bu aniq bir mahsulot sifatida mujassamlashgan grafik, audio-musiqa, video rasmlar, axborotlar, animatsiyalardan iborat bo'lib, unda foydalanuvchi uchun teskari muloqotning ham imkoniyati mavjuddir.

Ma'lumki, ma'ruzani o'quvchilarning 25% iga yaqini o'zlashtiradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham ma'ruzani eshitish, ham materialni kompyuter ekranida ko'rish va uni ekranga chiqarishni faol boshqarish o'zlashtirish sifatini oshiradi.

Multimedia mahsulotlaridan geografiya fanida foydalanish va ular yordamida o'quvchilarni o'qitish, multimedia texnologiyalarini geografiya sohasining turli pedagogik faoliyatlarida qo'llanilishining asosiy jihatlarini ajratib beradi. Ya'ni darsni o'tish jarayonida uni ko'rgazmali va tushunarli tarzda bayon qilish uchun tartibli ravishda multimediali namoyish va slaydlarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Xususan, o'qituvchining nutqi orqali bir vaqtning ichida namoyishlar katta ekranda multimedia proektori yoki kompyuter vositalari, DVDlar orqali ko'rsatiladi. Namoyishlar o'z navbatida matnlar, tovushlar, chizmalar, harakatlar, tasvirlar va boshqa animatsion elementlar orqali to'ldirilgan bo'lishi lozim. Multimedia texnologiyalari ta'lif jarayonini ko'rgazmali qurollar va vositalar bilan ta'minlash muammosini ma'lum bir darajada hal qilishi mumkin.

Ta'lif jarayonini multimedia texnologiyalari asosida tashkil etishda video-ma'ruzalar, animatsion modellar, kompyuterli amaliy mashg'ulotlardan foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi, chunki ular o'rganilayotgan real ob'ekt va jarayonlarni ko'rish, tasavvur etish imkonini beradi.

Masalan, geografiyadan 5 sinflar uchun yaratilgan elektron darslik orqali "Yerning o'z o'qi va quyosh atrofida aylanishi" mavzularini o'qitish jarayonida yerning o'z o'qi va quyosh atrofida aylanishi, yerning orbitaga nisbatan og'ishganligi, yerning va boshqa sayyoralarning quyosh galaktikasida harakatlanishi, tezligi tushunarli va tartibli tarzda hamda ular tasavvur eta oladigan darajada tayyorlangan bo'lib, o'quvchilarda mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Lekin muammo shundaki, geografiya fanidan sinflar kesimida tayyorlangan elektron darsliklar va multimedia mahsulotlari reja va dasturdagi mavzularning ko'philagini qamrab ololmagan,



mavzularning deyarli ko‘pchiligin elektron darslik orqali o‘tishning imkoniy yo‘q. Buning uchun esa mavzularni ko‘proq qamrab olish va multimedia mahsulotlarini yaratishni yanada ko‘paytirish va takomillashtirish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, geografiya darslarida AKT dan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. O‘qituvchining fikri yoki darsning mohiyati ko‘rgazmali tarzda bir zumda monitorda paydo bo‘lishiga;

2. Bir vaqtning o‘zida hamma jarayonni ko‘rish, o‘qish va eshitishga;

3. O‘z-o‘zini o‘qitish, baho berish;

4. Kuzatish, kichik tadqiqot o‘tkazib ko‘rishga;

5. Eshitib, ko‘rib, his qilib olingen bilimning uzoq muddatli va samarali bo‘lishiga;

6. O‘quvchining mustaqil ishlashi, yangiliklar yaratishiga;

7. O‘quvchilarda tasavvur va dunyoqarashning rivojlanishiga;

8. O‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishga va vaqt ni tejashta;

9. O‘quvchilarda dars jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Axbroto texnologiya pedagogika texnologiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo’llana boshlandi. Axborotlashgan jamiyat barpo etishda maktab o‘quv predmetlari dars jarayonlarida AKT dan foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxammedov R. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. -Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.

2. Nurmetov A., Qodirov I. Geografiyadan sinfdan tashqari ishlar. –Toshkent O‘qituvchi, 2017.



## O'ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

*Zaripova Mohigul Olimjonovna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
26-sonli maktab geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarining geografik xususiyatlari keltirib o'tiladi. Geografik xususiyatlar deganda, EIZ joylashgan hududning iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurs salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari, xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo va investitsiyalar bo'yicha hamkorlik masalalari tushuniladi. Maqolada ana shu kabi jihatlar iqtisodiy-geografik nuqtayi nazardan tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasasi, iqtisodiy geografik o'rinni, tabiiy sharoit, tabiiy resurslar, tashqi savdo, investitsiyalar.

Ma'lumki, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiyotni hududiy tashkil etishning yangi shakllaridan biri. Jahon xo'jaligidagi zamona turdagiga EIZlar XX asr o'rtalaridan boshlab paydo bo'la boshladi. Hozirda 147 ta mamlakatda 5400 dan ortiq turli xil shakldagi EIZlar mavjud.

Erkin iqtisodiy zona – bu mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni, istiqbolli texnologiya va boshqaruva tajribasini jalb etish maqsadida tuzilgan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 21 ta erkin iqtisodiy zona, 123 ta kichik sanoat zonalari faoliyat ko'rsatmoqda. EIZlar ixtisoslashuviga ko'ra 4 ta tarmoqqa bo'linadi: sanoat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika va turizm. Sanoat tarmog'ida 12 ta, farmatsevtika tarmog'ida 7 ta, qishloq xo'jaligi va turizm tarmoqlarida 1 tadan EIZlar mavjud.

O'zbekistonda birinchi erkin iqtisodiy zona mamlakatimiz hududining geografik markazi bo'lgan Navoiy viloyatida tashkil etilgan. Buning o'ziga xos sababi bor. Ma'lumki, Navoiy viloyati mamlakatimizning yuksak taraqqiy etgan hududlardan biri. Ayniqsa, viloyat tabiiy boyliklarning ko'pligi, sanoat salohiyatining yuqori 3ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ana shu imkoniyatlarni hisobga olgan holda 2009-yilda O'zbekistondagi birinchi erkin iqtisodiy zona aynan Navoiy viloyati hududida tashkil etilgan edi "Navoiy" EIZ o'zining iqtisodiy salohiyati, investitsion imkoniyatlariga ko'ra yetakchilik qiladi. EIZ Karmana tumanida joylashgan bo'lib, 645 hektar maydonni egallaydi. Rivojlangan muhandislik infratuzilmasi va logistika imkoniyatlariga ega. Qulay geografik joylashuvi, boy xomashyo bazasi va malakali mutaxassislarga ega ekanligi "Navoiy" EIZni ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish uchun ulkan sanoat maydoniga aylantirdi. Hudud yaqinidan M-37 Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi xalqaro avtomobil yo'lining o'tganligi, Navoiy xalqaro aeroprti va multimodal logistika markazidan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi EIZning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. "Navoiy" EIZda iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'naliishlari quyidagilardan iborat: elektronika, elektrotexnika, mashinasozlik, telekommunikatsiya, tibbiyot asbobuskunalar, farmasevtika, qurilish materiallari, kimyo, plastik va polimerlar ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishslash.

Bugungi kunda "Navoiy" EIZda 28 ta xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyat olib bormoqda. Ular orasida Xitoy, Hindiston, Koreya Respublikasi, Singapur, BAA, Italiya, Buyuk Britaniya singari xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma korxonalar ham bor. Toshkent viloyati – boy tabiiy resurslarga, ulkan iqtisodiy salohiyatga ega. Bu boyliklardan xalqimiz farovonligi yo'lida foydalanish, ishlab chiqarish va xizmatko'ratish tarmoqlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Resursimkoniyatlaridan foydalanish, Farg'onaga vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, "Angren" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Mazkur EIZda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda



preferensiylar berildi, ularning infratuzilma obyektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta'minlanmoqda. "Angren" EIZ Farg'ona vodiysini mamlakatimizning boshqa viloyatlarini bilan bog'laydigan Toshkent-O'sh avtomobil yo'li, va Toshkent-Angren-Pop temiryo'li yaqinida joylashganligi bilan ajralib turadi. Aynan, Angren-Pop temiryo'lining qurilishi EIZning ahamiyatini yanada oshirdi. "Angren" EIZni tashkil etish konsepsiyasidan va tanlangan mezonlardan kelib chiqqan holda hududda quyidagi tarmoqlar va yo'nalishlardagi korxonalar joylashtiriladi: elekrotexnika, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qurilishmateriallari, farmatsevtika, oziq-ovqat va yengil sanoat.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyotining tayanchi bo'lmosq'i lozim. EIZlar birinchi navbatda qulay investitsiya muhiti yaratilgan, investitsion jozibadorligi yuqori bo'lgan hududga aylanib, xorijiy investitsiyalar oqimini o'ziga jalb eta olsagina asosiy maqsadiga erisha oladi. Ular sanoat, qishloq xo'jaligi, farmasevtika yoki turizm tarmoqlariga ixtisoslashi barobarida ana shu tarmoqning rivojlanishi uchun zamin yaratishi, eng yuqori pog'onaga olib chiqsa olishi kerak. Shundagina EIZ o'z maqsad va vazifalarini amalgalashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Investment Report 2019. Free Economic Zones Chapter IV. UNDP, 2019.
2. Состояние и перспективы развития свободных экономических зон в Республике Узбекистане. Аналитический доклад. –Т.: 2015.
3. Актуальных проблемах развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан. Информационно- аналитический доклад. –Т.: 2018.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(25-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000